



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-mart 2019 yil


RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **1,4 trln. so'm**, o'sish sur'ati **101,3 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **102,5 %** ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **100,8 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **102,7 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1 414,1 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,3 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar –1 331,7 mlrd.so'mni (102,0 %), o'rmon xo'jaligi –54,8 mlrd.so'mni (103,1 %), baliq xo'jaligi –27,6 mlrd.so'mni (70,3 %) tashkil qildi.

1-diagramma


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd. so'm)



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Zomin (102,4 foiz), Zarbdor (102,3 foiz), va Baxmal (102,0 foiz) tumanlarida kuzatildi. Jizzax shahar (100,1 foiz), Arnasoy (100,3 foiz), Mirzachul (100,1 foiz) esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

2-diagramma

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Jizzax viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Baxmal tumanining ulushi 19,0 foizni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, G'allaorol va Zomin tumanlari mos ravishda 14,3 foiz va 13,4 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiobod tumani (3,2 foiz) va Jizzax shahrida (2,6 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,3 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 100,8 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 102,7 foizni tashkil qildi.


Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 85,3 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 8,1 % – fermer xo'jaliklariga, 6,6 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

3-diagramma

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, %da



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, barcha hududlarda eng yuqori ko'rsatkichlar dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 109,8 mln. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,8 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 7,8 %ni tashkil qildi.



1-jadval


2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da
Sabzavotlar	587,0	103,0	22,0	84,6	565,0	103,9		
Meva va rezavorlar	20,0	105,3	14,0	100,0	6,0	120,0		

Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar – mart oylarida 587 tonna (103,0 foiz) sabzavotlar, meva va rezavorlar, 20 tonna (105,3 foiz) yig'ib olindi.

Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi %da


4-diagramma



- Қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотлар
- Деhqон (shaxsiy ёrдамчи) хўжаликлари
- Фермер хўжаликлари

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida sabzavotlarning 96,3 foizi, meva va rezavorlarning 30,0 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. meva va rezavorlarning esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 70,0 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



Chorvachilik



2019 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1216,4 mln. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 86,0 foizni tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 33,3 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 103,3 foizga ko'p), 109,7 ming tonna sut (102,1 foizga), 48 324 ming dona tuxum (102,9 foizga) ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	33,3	103,3	0,2	107,6	33,0	103,4	0,1	74,6
Sut, ming t	109,7	102,1	1,4	88,8	108,0	102,3	0,3	101,5
Tuxum, mln. dona.	48,3	102,9	1,9	96,2	30,2	102,9	16,2	103,7
Qorako'l, ming dona.	0,4	155,5	0,2		-	-	0,3	100,4

6-diagramma


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, %da



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 98,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 98,4 foizi, tuxumning 62,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Qorako'l terining 64,5 foizi esa fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

7-diagramma

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 877,2 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 247,7 ming boshga, qo'y va echkilar – 2 055,9 ming boshga, parrandalar – 3 236,0 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 8,9 ming boshga (1,01 foizga), shu jumladan sigirlar bosh soni -2,5 ming boshga (1,01 foizga), qo'y va echkilar – 107,6 ming boshga (1,05 foizga), parrandalar – 389,9 ming boshga (1,13 foizga) ko'paydi.

3-jadval


2019 yilning 1 aprel holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>ming. bosh</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>
Yirik shoxli qoramollar	877,2	101,0	34,6	110,0	830,0	100,6	12,6	105,7
<i>shu jumladan</i> sigirlar	247,7	101,0	10,6	104,1	234,0	100,5	3,1	152,2
Qo'y va echkilar	2055,9	105,5	311,5	118,5	1555,0	100,8	189,4	133,2
Parrandalar	3236,0	113,7	303,3	116,5	1986,0	102,1	946,7	147,6


2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,0 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 15,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 75,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 9,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 9,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 61,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 29,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

2019 yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)



shundan, sigirlar (ming bosh)






Qo'y va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi



Fermer xo'jaliklari



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-230-83-49
• 71-230-83-53